



DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIK VA DAVLATNING EKOLOGIK FUNKSIYASI

Aminov Mirobos Askar o'g'li

Toshkent davlat yuridik universiteti doktoranti

e-mail: mr4689959@mail.ru

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7483463>

ARTICLE INFO

Received: 14th December 2022

Accepted: 25th December 2022

Online: 26th December 2022

KEY WORDS

Davlat-xususiy sheriklik, ekologik funktsiya, qonun, Osiyo taraqqiyot banki, farmon.

ABSTRACT

Davlatning ekologik funksiyasini amalga oshirish jarayonida tabiatdan foydalanish va uni muhofaza qilish munosabatlaridagi ustun jihatlarni aniqlash ham juda muhim ish hisoblanadi. Iqtisodiy manfaatlarni ko'zlab tabiatga zarar yetkazish yaxshi oqibatlarga olib kelmaydi, yoxud ekologik manfaatlarni ko'zlab iqtisodiy rivojlanishni ta'minlamaslik ham mumkin emas. Bu jarayonda asosiy e'tibor iqtisodiy va ekologik manfaatlarining uzviyligiga qaratilishi kerak.

KIRISH. Iqtisodiy o'sish sur'atlarini barqarorligini ta'minlash mamlakatning tegishli infrastruktura ob'ektlarini zamonaviy talablar darajasida bo'lishini taqozo etadi. Xalqaro tajriba shuni ko'rsatmoqdaki, infrastrukturani rivojlantirish nafaqat davlat byudjeti mablag'lari, balki infrastruktura loyihalariga mahalliy va xorijiy investisiyalarni jalb qilish orqali ham amalga oshirilishi maqsadga muvofiq. Shu bilan birga, iqtisodiyotda davlat aralashuvining yuqoriligi va byurokratiya, soliq, bojxona hamda bank tizimidagi mavjud muammolar ichki investitsiyalarni ko'paytirishga va xorijiy sarmoyadorlarni yanada kengroq jalb etishga hali ham to'siq bo'lib kelmoqda. Mazkur maqolada mamlakatimizda ekologiya va atrof-muhit sohasini rivojlantirishga xususiy investisiyalarni jalb qilish mexanizmlari asoslab berilgan.

Huquqshunos olim M. Najimov davlatning ekologik funksiyasiga quyidagicha ta'rif bergan: davlatning ekologik funksiyasi deganda, uning jamiyat talab va ehtiyojlarini yanada to'liqroq ta'minlash va jamiyat a'zolarining yashash, mehnat va dam olish sharoitlarini yaxshilash, atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish vazifalarini hal etish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, ularni tiklash va ko'paytirish borasidagi faoliyati tushuniladi[1]. Ichki tuzilishiga ko'ra, davlatning ekologik funksiyasi o'zaro bog'liq uch yo'nalishda amalga oshiriladi: a) atrof tabiiy muhit ob'ektlarini saqlash; b) tabiiy resurslardan oqilona foydalanish; v) tabiiy resurslarni tiklash. Konstitutsiyaning tabiatni muhofaza qilishga doir norma va talablaridan kelib chiqib, davlatning uch shakldagi ekologik faoliyati mavjudligi haqida xulosa chiqarish mumkin: 1) tabiat ob'ektlarini muhofaza qilish (55-m); 2) fuqarolarning qulay tabiiy atrof muhitga ega bo'lish huquqini ta'minlash (50-m); 3)

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI



mulkdan foydalanuvchi barcha sub'ektlarning ekologik muhitga ziyon yetkazmasliklari, fuqarolar, yuridik shaxslar va davlatning qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlari va huquqlarini buzmasliklarini ta'minlash (54-m).

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot ishida tizimli tahlil, statistik ma'lumotlarni guruhlash, analitik tahlil va boshqa usullar qo'llanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, atrof-muhitni muhofaza qilish choralari jamoat manfaatlariga javob berishdan tashqari, xususiy manfaatlarini qondirish vositasi ham bo'lishi mumkin. Ekologik biznesning misollari alohida emas, shuning uchun ham davlat-xususiy sheriklik rejimida loyihalarni amalga oshirish uchun sog'lom tuproq mavjud.

Quyida biz O'zbekistonda ekologik xavfsizlik sohasida amalga oshirilgan juda muvaffaqiyatli loyihalarning bir qator misollari haqida gaplasha olamiz.

Masalan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 10 iyulda 6024-sonli "O'zbekiston Respublikasi suv xo'jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo'ljallangan konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi farmoni[2] qabul qilingan. Ushbu farmonda berilgan topshiriqlar ijrosini ta'minlash maqsadida Quyi Zarafshon ITHB huzuridagi Nasos stansiyalari va energetika boshqarmasiga qarashli "Eski Uchqara", Sirdaryo-So'x ITHB huzuridagi Nasos stansiyalari va energetika boshqarmasiga qarashli "YOZYOVON", Norin-Qoradaryo irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi nasos stansiyalari va energetika boshqarmasiga qarashli «Istiqolol-1K» va «Istiqolol-2k» nasos stansiyalarini davlat-xususiy

sheriklik asosida boshqaruvga berish loyihasi konsepsiyasi tasdiqlandi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 9 oktabrdagi PQ-4486-sonli qarori[3]da nasos stansiyalari ish rejimini tartibga solishning samarali usulini joriy etish hisobiga suv xo'jaligi ob'ektlarida elektr energiyasi iste'molini kamida 10 foizga tushirish hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 10 iyuldagi PF-6024-sonli farmoni[4] bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasi suv xo'jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yilga mo'ljallangan konsepsiyasi"ning[5] 5.8 bandiga asosan Qoraqalpogiston Respublikasi suv xo'jaligi vazirligi huzuridagi Qoraqalpogiston nasos stansiyalari va energetika boshqarmasiga qarashli «Madaniyat» nasos stansiyasini davlat-hususiy sheriklik asosida ekspluatatsiya qilish loyihasi yuzasidan loyiha konsepsiyasi tasdiqlandi

Namangan shahar oqova suv inshootini davlat-xususiy sheriklik shartlari asosida qurish va ekspluatatsiya qilish rejalashtirilgan. Loyiha Uy-joy kommunal xizmat ko'rsatish vazirligi, "O'zsuvta'minot" aksiyadorlik jamiyati, Moliya vazirligi huzuridagi Davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish agentligi va Osiyo taraqqiyot banki bilan birgalikda amalga oshirilmoqda.

Namangan shahar oqova suv inshootining tizimlari 1960 yilda qurilgan bo'lib, bugungi kunda ushbu oqova suv tozalash inshootlarining 70 foizi ta'mirlash-tiklash ishlari olib borilmagani natijasida ishdan chiqib, tozalanmagan oqova suv Sirdaryo daryosiga oqizilmoqda.

Osiyo taraqqiyot bankining yollangan xorijiy ekspertlari tomonidan 2019 yil sentabr oyidan bugungi kunga qadar o'tkazilgan tadqiqotlari natijasida hozirgi



vaqtda mazkur obekt juda og'ir ahvolda va foydalanishga yaroqsiz ekani, oqova suv ifloslantiruvchi moddalardan deyarli tozalanmayotgani, mavjud tizimni tiklab bo'lmasligi va uning o'rniga yangi inshoot qurish talab etilayotgani to'g'risidagi xulosasi olingan.

Inshootning asosiy xizmat ko'rsatish hududi Namangan shahri bo'lib, aholining atigi 27 foizi oqova suv tarmog'iga ulangan. Rejalashtirilgan loyiha amalga oshirilishi natijasida:

- "Namangan suv ta'minoti" MChJ tomonidan Namangan shahar va unga tutash 5 tuman aholisi oqova suv xizmatlari bilan to'liq qamrab olinadi hamda aholining qamrov darajasi 10 foizdan 70 foizga yetkaziladi;
- oqova suv tarmoqlaridan foydalanish samaradorligi oshiriladi va aholiga ko'rsatiladigan xizmatlar sifati yaxshilanadi;
- Sirdaryo daryosiga oqizilayotgan ifloslantirilgan suvlar miqdorini sezilarli darajada kamaytirish orqali atrof-muhitni tozalash sifatini oshirish, ekologik vaziyatni barqarorlashtirish, aholi sog'lig'ini yaxshilash, qishloq xo'jaligi uchun qayta foydalanishga yaroqli oqova suv chiqarishga erishiladi;
- oqova suvlarni tozalash xizmatlari sifati oshiriladi va xizmat ko'rsatiladigan aholi va sanoat korxonalarini soni ko'paytiriladi;
- sohaga ilg'or texnologik innovatsiyalarni qo'llayotgan xalqaro xususiy kompaniyalarni jalb qilish orqali xizmat samaradorligi va sifati oshiriladi;
- xususiy kompaniyalardan oqova suvlarni tozalash inshootlarining ishlashi bo'yicha ilg'or bilim va zamonaviy texnologiyalarni tatbiq etish bo'yicha o'quv mashg'uloti markazi tashkil etiladi;

- "Namangan suv ta'minoti" MChJ va hududiy suv ta'minoti mutaxassislari malakasi oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 10 iyuldagi PF-6024-sonli farmoni[6] bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasi suv xo'jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yilga mo'ljallangan konsepsiyasi" ning 5.8 bandiga asosan Norin-Qoradaryo irrigatsiya tizimlari xavza boshqarmasi huzuridagi Shahrixonsoy irrigatsiya tizimlari boshqarmasiga qarashli Andijon viloyati Xo'jaobod tumani Shahrixonsoy hududida "Dam olish maskani va sog'lomlashtirish kompleksi"ni davlat-xususiy sheriklik asosida qurish loyihasi yuzasidan loyiha konsepsiyasi tasdiqlandi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 10 iyulda 6024-sonli "O'zbekiston Respublikasi suv xo'jaligini rivojlantirishning 2020 — 2030 yillarga mo'ljallangan konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi farmoni qabul qilingan. Ushbu farmonda berilgan topshiriqlar ijrosini ta'minlash maqsadida Zarafshon ITHB huzuridagi Nasos stansiyalari va energetika boshqarmasiga qarashli "Galaba" nasos stansiyasini davlat-xususiy sheriklik asosida boshqaruvga berish loyihasi konsepsiyasi tasdiqlandi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 2 dekabrda PQ-4543-sonli "Toshkent shahrining issiqlik ta'minoti tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi qarori[7] qabul qilingan. Ushbu qarorga asosan Toshkent shahri issiqlik ta'minoti tizimini davlat-xususiy sheriklik shartlari asosida boshqaruvga berish yuzasidan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan 2020 yil 16 iyundagi 05/1-



3999-son bilan loyiha konsepsiyasi tasdiqlandi.

2020-yilning 27 yanvar kuni O'zbekiston Respublikasi Uy-joy va kommunal xizmat ko'rsatish vazirligi va Davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish agentligi ko'magida Xorazm viloyati Yangiariq va Yangibozor tumanlarida DXSh asosida ichimlik suv ta'minotini rivojlantirish bo'yicha 2 ta davlat-xususiy sheriklik bitimi imzolandi.

Suv ta'minoti ob'ektlaridan foydalanishda DXShni amalga oshirish loyihasi doirasida mahalliy investorlar tomonidan Xorazm viloyatining Yangibozor tumanida 5 mlrd so'm va Yangiariq tumanida 9 mlrd 430 mln so'm mablag'lar jalb qilinadi. Mazkur DXSh loyihasi doirasida mazkur tumanlar hududidagi barcha iste'molchilar va ichimlik suv tarmoqlari qayta xatlovdan o'tkaziladi, ichimlik suvi etib bormagan aholi punktlari va xonadonlarni ichimlik suv quvuriga ulash, suv hisoblagichlarni o'rnatish ishlari olib boriladi. Loyiha doirasida 35 km dan ortiq yangi ichimlik suv quvurlari va kanalizatsiya tarmoqlarini qurish va rekonstruktsiya qilish ishlarining amalga oshirilishi natijasida 7573 ta xonadonda yashovchi 37 868 nafar aholi toza ichimlik suvi bilan ta'minlanadi. Shu tariqa aholining sifatli ichimlik suvi bilan ta'minlanganlik darajasi 44% dan 80% ga yetkaziladi.

Loyiha doirasida xususiy sherik hozirgi kunda suv tarqatish inshootlardagi ko'p energiya sarflovchi va eskirgan barcha uskuna, jihoz, quvurlar va nasos agregatlarini to'liq almashtiradi. Yuzaga kelishi mumkin bo'lgan avariya xolatlarini tezkor va qisqa muddatda to'liq bartaraf qilish uchun zarur bo'lgan zamonaviy maxsus texnika, texnik asbob-uskunalar,

quvurlar va boshqa anjomlar zahirasini yaratiladi. Umuman olganda xususiy sherik, ya'ni investor davlat-xususiy sheriklik loyihasi doirasidagi ob'ektlarni moddiy texnik bazasini rivojlantirish ishlarini o'z hisobidan amalga oshiradi. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 30 noyabrdagi "O'zbekiston Respublikasida ichimlik suvi ta'minoti va kanalizatsiya tizimlarini rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi[8] hamda 2019 yil 29 apreldagi "Respublika iqtisodiyotiga to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilish mexanizmlarini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi[9] qaroriga asosan Osiyo Taraqqiyot Banki (OTB) tomonidan jalb etilgan xorijiy konsultantlar bilan birgalikda Namangan shahrida suv ta'minoti hamda kanalizatsiya tizimlarini DXSh shartlari asosida boshqaruvga berish bo'yicha ishlarni amalga oshirilmoqda. Bundan tashqari, OTB maslahatchilari bilan birgalikda Namangan shahar suv ta'minoti va kanalizatsiya tizimlarini har tomonlama o'rganish asosida 2020 yilning uchinchi choragi yakuniga qadar «shahar ichimlik suvi ta'minoti va kanalizatsiya tozalash inshootlarini rekonstruktsiya qilish» loyihalarini amalga oshirish uchun tender hujjatlarini tayyorlash bo'yicha kelishuvga erishildi. Shu bilan birga, Toshkent shahar hokimligi va Osiyo taraqqiyot banki o'rtasida Toshkent shahri issiqlik ta'minoti tizimini davlat-xususiy sheriklik shartlari asosida boshqaruvga berish yuzasidan maslahat xizmatlarini ko'rsatish bo'yicha bitim tuzildi. Toshkent shahrining issiqlik ta'minoti sohasida DXSh loyihasini tayyorlash doirasida "Veolia Energy Tashkent" MChJ («Veolia Central & Eastern Europe» Fransiya kompaniyaning 100%



egalligida) tomonidan OTBning bergan ko'rsatmalarini inobatga olgan holda DXSh loyihasining kontseptsiyasi va texnik-iqtisodiy asoslari Toshkent shahar hokimligiga taqdim etildi. Bugungi kun holatiga loyihani muvofaqqiyatli yakunlash bo'yicha hokimlikning ijobiy xulosasi berilgan. Navbatdagi bosqichda endi tender o'tkaziladi va unda salohiyatli g'olib aniqlanib, loyihani amalga oshirish ishlari boshlanadi.

Hozirgi kunda 31 ta yirik va o'rta shaharlar, 156 ta tuman markazlarining kanalizasiya tizimini qurish hamda modernizasiya qilish vazifasi turibdi. Kanalizasiya tizimi Qarshida 45 foiz, Andijonda 37, Nukusda 30, Namanganda 10 foizga ta'minlangan.

Faqat 18 ta yirik va o'rta shahar uchun xalqaro moliya tashkilotlarining 912 million dollari jalb qilingan. Hisob-kitobga ko'ra, barcha kanalizasiya loyihalari uchun 2 milliard 600 million dollar talab qilinadi. Xususiy sheriklar bilan birgalikdagi shahar kanalizasiyasi modernizasiyasi ham byudjetga yengillik bo'ladi, ham xizmat sifati yaxshilanadi[10].

Farg'ona viloyatining Rishton, Bog'dod, Buvayda, Uchk o'prik va Dang'ara

tumanlarida, Farg'ona, Quva, O'zbekiston, Beshariq, Toshloq, Furqat, So'h, Qo'shtepa, Oltiariq va Yozyovon tumanlarida, Namangan viloyatining Mingbuloq, Namangan, Namangan shahar va To'raqo'rg'on tumanlarida, Toshkent viloyatining Parkent, Yuqorichirchiq, Toshkent, Angren va Chirchiq shaharlarida, Buxoro viloyatining Kogon, Qoravulbozor va Buxoro tumanlarida, Navoiy viloyatining Navbaxor, Konimex, Nurota va Xatirchi, Uchquduq, Tomdi va Qizil Tepa tumanlarida qattiq maishiy chiqindilarni to'plash, olib chiqish, saralash va qayta ishlash klaster xizmatlarini davlat-xususiy sheriklik asosida boshqarish yuzasidan loyiha konsepsiyasi tasdiqlandi[11].

XULOSA. Tabiiyki, atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida davlat-xususiy sheriklik loyihalarini amalga oshirish misollari, ushbu vositadan davlat xarajatlarini optimallashtirishda foydalanish to'g'risida xulosamizni tasdiqlaydi.

Xususiy sub'ektlarni majburiy ekologik to'lovlar tizimi orqali ham, davlat-xususiy sheriklik mexanizmlari orqali ham atrof-muhitni muhofaza qilish jarayonlariga jalb qilish ob'ektiv zaruriy jarayondir.

References:

1. Najimov M.K. Davlat funksiyalari. –Toshkent: TDYU, 2018.– B.18.
2. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. 08.12.1992 // URL: <https://www.lex.uz/acts/20596>.
3. Qonun hujжатлари маълумотлари миллий базаси, 10.10.2019 й., 07/19/4486/3886-сон // URL: <https://lex.uz/docs/4545898>
4. Qonun hujжатлари маълумотлари миллий базаси, 11.07.2020 й., 06/20/6024/1063-сон // URL: <https://lex.uz/docs/4892953>
5. Qonun hujжатлари маълумотлари миллий базаси, 11.07.2020 й., 06/20/6024/1063-сон // URL: <https://lex.uz/docs/4892953>
6. Qonun hujжатлари маълумотлари миллий базаси, 11.07.2020 й., 06/20/6024/1063-сон // URL: <https://lex.uz/docs/4892953>
7. Qonun hujжатлари маълумотлари миллий базаси, 03.12.2019 й., 07/19/4543/4100-сон // URL: <https://lex.uz/docs/4624852>



8. Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 30.11.2018 й., 07/18/4040/2252-сон; 26.09.2020 й., 06/20/6074/1322-сон/ URL: <https://lex.uz/docs/4087011>
9. Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 29.04.2019 й., 07/19/4300/3032-сон, 23.11.2019 й., 06/19/5881/4045-сон; 13.05.2020 й., 06/20/5992/0581-сон/ URL: <https://lex.uz/docs/4312752>
10. Davlat-xususiy sheriklik agentligi portali. <http://www.pppd.uz>
11. Davlat-xususiy sheriklik agentligi portali. <https://pppd.uz/2338>